



**QASHQADARYO VILOYATI
QAMASHI TUMANI HOKIMINING
Q A R O R I**

180500, Qamashi shahri, Amir Temur ko‘chasi, 1-uy. Tel: (375) 53-24-490, t.qamashi@exat.uz

2022 - yil 25 - fevral

70-4-58-Q/22

Qamashi tuman hokimligi

**Qamashi tuman mahalliy budgetining 2022- yilgi zaxira jamg‘armasi mablag‘lari
hisobidan tuman Hokimligiga mablag‘ ajratish to‘g‘risida:**

Tuman mahalliy budgetining 2022- yilgi zaxira jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan tuman Hokimligiga, tumandagi sektor rahbarlari va tuman hokimi o‘rinbosarlarining sog‘ligini tiklash uchun sihatgoh xarajatlariga mablag‘ ajratish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy Davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasiga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Tuman hokimligi moliya bo‘limi (Pardayev) **tuman mahalliy budgetining 2022- yilgi zaxira jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan** tuman Hokimligiga tumandagi sektor rahbarlari va tuman hokimi o‘rinbosarlarining sog‘ligini tiklash uchun sihatgoh xarajatlariga 1-ilovaga muvofiq jami 27,6 mln. (yigirma etti million besh yuz o‘ttiz to‘rt ming ikki yuz sakson besh) so‘m mablag‘ ajratsin.

2. Tuman hokimligi moliya bo‘limi mudiri (Pardayev) belgilangan tartibda moliyalashtirish rejasiga o‘zgartirish kiritishni, tuman G‘aznachilik bo‘linmasi boshlig‘i (Bekpulatov) ajratilgan mablag‘ni kassa ijrosini o‘z vaqtida amalga oshirishni ta’minlasin.

3. Tuman hokimligi bosh hisobchisi (Mamatov) mazkur qarorga asosan ajratilgan mablag‘ni belgilangan maqsadlarga sarflanishini ta’minlasin.

4. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari R.G‘afurov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



B.Tog‘ayev

Qamashi tuman hokimining
2022 yil 25 fevraldag'i
70-4-58-Q/22-son qaroriga
1-ilova

**Tuman mahalliy budgetining 2022- yilgi zaxira jamg'armasi mablag'lari
hisobidan tuman hokimligiga tuman sektor rahbarlari va tuman hokimi
o'rribosarlarining sog'ligini tiklash uchun sihatgoh xarajatlariga
ajratiladigan mablag'**

Nº	Nomi	Ajratiladigan mablag' (so'mda)
1	2-sektor rahbari Baxodirov Baxriddin Baxodir o'g'lining sog'ligini tiklash uchun sihatgoh xarajatlariga	6 058 017
2	3-sektor rahbari Meyliyev Nuritdin Normuradovichning sog'ligini tiklash uchun sihatgoh xarajatlariga	3 021 168
3	4-sektor rahbari Karamanov G'anisher Jumanazarovichning sog'ligini tiklash uchun sihatgoh xarajatlariga	3 403 480
4	tuman hokimi o'rribosari Haydarov Bekmurod Baxtiyorovichning sog'ligini tiklash uchun sihatgoh xarajatlariga	3 936 636
5	tuman hokimi o'rribosari Azizov Xabibulla Normatovichning sog'ligini tiklash uchun sihatgoh xarajatlariga	4 052 357
6	tuman hokimi o'rribosari Haydarov Qurban Xazratovichning sog'ligini tiklash uchun sihatgoh xarajatlariga	3 373 168
7	tuman hokimi o'rribosari Bekmurzayev SHavkat Aralovichning sog'ligini tiklash uchun sihatgoh xarajatlariga	3 689 459
	Jami:	27 534 285